

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'ZG'ASHTIRISHI PAST BO'LGAN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODLARI

Qarshiyeva E'zoza

Termiz davlar pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'zlashtirish past o'quvchilarni aniqlash, o'quvchilarning rivojlanganlik darajasini aniqlash, ular bilan ishlash rejaları, o'quvchilarning vaqtini joylashirish, matn ustida ishlash, uyvazifalrini berishish, o'quvchilarning vaqtini mazmunli tashkil qilish haqida hikoya qililnadi.

Kalit so'zlar: o'zlashtirishi past o'quvchilar, dars, samaradorlik, Davlat ta'lim standartlari, suhbat, pedagog, reja, qiziqtirish, omil, matn, uy vazifalari, daraja, rag'batlantirish.

"Besh yillik taraqqiyot strategiyasini e'lon qildik. Oldimizga yalpi ichki mahsulot va eksportni karra-karra oshirish, sanoatni va axborot texnologiyalarini keskin rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish boyicha ulkan marralarni oldik. Bu vazifalarni kim uddalaydi? Albatta, maktabda zamonaviy bilimlarni egallagan, raqobatbardosh yoshlar. Umuman, respublika boyicha 10 ming 130 ta maktabni isloh qilish 6 milliondan ziyod o'quvchi, 500 mingdan ortiq muallim, umuman, jamiyatimizning barcha qatlamlari, har bir oilaning kelajagi bilan chambarchas bog'liq"-Degan edilar davlatimiz Prezidenti. Binobarin har bir sohaning boshlanishida boshlang'ich ta'lim muhim hisobladi. Boshlang'ich ta'lim darslarining sifati, ta'lim samaradorligining yuqoriligi, har bir o'quvchilarning Davlat ta'lim standartlarida belgilangam bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi yurtimizning kelajagini belgilab beradi desak adashmagan bo'lamiz. Yurtimizning kelajagi yoshlar qo'lida. Shunday ekan har bir o'quvchi dars mashg'ulotlarini o'zlashtirishib muhim hisoblanadi. Albatta pedogning oldidagi muhim vazifalardan biri o'zlashtirishi past o'quvchilar bilan ishlash.

O'zlashtirishi past o'quvchilarlar qanday o'quvchilar? O'zlashtirishi past o'quvchilar - davlat ta'lim standartlarida belgilab qoyilgan darajada o'zlashtira olmayotgan, bilim olishda ishtiyoqi pasayib ketgan, o'ziga ishonchi yo'qolgan o'quvchidir. O'quvchilarning past o'zlashtirishiga ba'zi sabablar bo'lishi mumkin:

- o'quv materiallarining haddan tashqari ko'p va betartib berilishi;
- o'qituvchining darslarni qiziqarli tashkil etmasligi;
- o'quvchilarning darsni ko'p qoldirishi;
- o'zlashtirishi pastroq bo'lgan o'quvchilarga o'z vaqtida aniqlamaslik va e'tibor qaratmaslik;

-o'zlashtirishi past o'quvchilar bilan muntazam, ichki reja asosida ish olib bormaslik;

-o'quvchining oilaviy ijtimoiy muhitidagi salbiy omillar

-o'quvchining sog'liq bilan bo'liq holatlar;

-dars qilish, o'zlashtirish, mustaqil ishlash uchun shart-sharoitlarning yo'qligi;

-Ota-Ona va pedagogning o'rtasida aloqaning yo'lga qo'yilmagani

-bolaning o'zg'ashtirishini muntazam ravishda nazorat qilmaslik va boshqa shu kabi omillar sabab bo'lishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'yin faoliyatidan o'qish faoliyatiga o'tadi. Ular qat'iy qoidalariga rioya qilmagan erkin holatda hohlagan narsalarni bajargan. Endi esa ular maktab tartib qoidalariga bo'ysunishi, 45 daqiqa darsda o'tirishi ular uchun notanish holat va boshiga biroz murakkab bo'lishi mumkin. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda metodlardan foydalanish, didaktik o'yinlardan va bolalarga xos videolarga asoslangan holda dars o'tish samara beradi. O'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlari oshadi. O'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash uchun o'qituvchi o'zi uchun reja tuzib olishi olizim.

Rejadagi ishlar:

1. Sinfidagi o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilarni aniqlash.

2. O'quvchilar bilan yakkama-yakka suhbat o'tkazish, ularning qiziqishlarini aniqlash.

3. O'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilarning Ota-Onasi bilan suhbat o'tkazish.

4. Alohida eraja va jadval asosida mashg'ulotlar olib borish.

5. O'zlashtirishi past o'quvchilar uchun mahsus jo'rnal tutish va doimiy monitoring olib borish.

6. O'quvchilarga o'zi qiynalayotgan fan bo'yicha alohida daftar tutdirish va uni baholash.

7. O'zlashtirishda boshqa o'quvchilarga yetib olgan bolalarni rag'batlantirish.

8. O'zining o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash tajribasini pedagogik kengashlarda, seminarlarda matbuotda ommalashtirish

O'quvchilarning rivojlanganlik darajasini aniqlab olish uchun "Hikoyani o'ylab top" usulidan foydalanishimiz mumkin. Bu usulda bola 1 daqiqa davomida kishi, narsa yoki hikoya ertak aytishga tayyorlanadi va 2 daqiqada aytishi kerak bo'ladi. O'quvchilar hikoya tuzish tezligi, hikoyaning qiziqariligi, obrazlarning har xilligi, hissiyot mimika, pantomikalarning qo'llanilishi, qism bo'lak so'zlarining qo'llanilishiga qarab baholanadi. O'quvchilarning xotirasini bilish, yaxshilash uchun xotira mashqlar bajarish mumkin. Bundan tashqari o'quvchilarni ma'naviy-tarbiyaviy tadbirlarga jalb qilishi lozim. Uyga beriladigan vazifalarga e'tibor qaratamiz. Uyga beriladigan vazifalar ham mustaqil ishning bir turidir. Bolalarga iloj boricha sinf sharoitida asosiy bilim va malakalarni singdirish, uyga vazifalar berishni me'yorlash

kerak. Bolalar darsdan keyin(Og'ir mashaqatli mehnafan keyin) tiniqib dam olsalar ko'proq ochiq havoda bo'lsa harakatli,o'yin sayr kuzatishlar bilan vaqt o'tqazib ,tunda osuda uxlab ertangi kungi darslarga yaxshi kayfiyat bilan kelsalar, darsni o'zlashtirish yaxshi bo'ladi.Shuning uchun uy vazifalari, oson bo'lishi asosan bolalarni kuzatishga qo'yishi lozim. Boshlang'ich talimning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning so'z zahirasini boyitishdir.Bunda lug'at ustida ishlashga etibor qaratish lozim. Ona tili bilan o'qish fanlari doimo bog'lab borish maqsadga bog'liq. O'zlashtirishi past o'qivchilarning nutqini o'stirish mashqi:

Bir kosib o'g'liga

Men qarib qoldim endi sen ho'jalikni boshqarasan. Ishla pul debdi. Bola nima qilishni bilmay qolibdi va onasiga otasining gaplarini aytibdi.

O'qituvchi to'xtab pauza qilibdi va savol beradi .

Bolalar nima deb o'ylaysiz keyin nima bo'lgan?

O'quvchilar o'z mulohazalarini bildirishi kerak,ayniqsa, tez chalg'iydigan o'quvchilarning diqqatini tortishi lozim . Bir necha javoblar olgandan keyin, "Qani bir eshitaylikchi o'zi nima bo'ldi ekan matnining davomi o'qiydi.

Hali yoshsan qayirdan ham pul topib xo'jayinlik qila olasan? debdi onasi va unga oziroq pul beribdi bola sevinganicha, otasini oldiga ketib:

-Otajon mana pul topib keldim, debdi shunda ota bolaning quldagi pulni olib, o'tga tashlabdi bola xo'rsinibdi va yana indamay pul topish dardida ko'chaga chiqibdi.

Pauza yoki savol: Nima deb o'ylaysiz o'g'il endi nima qiladi ? Turli variant javoblar bo'lishi mumkin. Matndagi javobni aylantirisha harakat qilmang, balki har bir ta'lim oluvchiga "rahmat" bu sening fikring edi, " fikringizni aytganiz uchun minnatdorman" kabi so'zlarni aytishi, to'g'ri javobni eshitsa ham boshqalarning fikrini eshitiishi lozim. Qani eshitaylikchi bola keyin nima qildi? Matn oxirigacha shu kabi pauza va savollar bilan tugatish lozim. Bola shaxsini rivojlantirish oliy maqsadlardan biridir. Har bir pedagog o'zining pedagogik mahoratidan foydalanib o'quvchilar bilan ishlashsalar albatta natijaga erishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 1.Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" .- T.: O'zbekiston, 2017. - 104 b.

2.Intizor Jumaniyozova. "Boshlangich ta'lim jurnali.2022-yil 8-apreldagi soni. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". 1997. - 31-60-betlar.

3.Suvonov O va boshqalar. "Pedagogik texnologiyalarni qo'llash davr taqozosi". "Xalq ta'limi" , 2004 yil, № 5.

4.Musurmonov A. "Ta'lim-tarbiyada xalq og'zaki ijodidan foydalanish". T.: O'qituvchi, 1993.

5.Mavlonova. A.R."Umumiy pedagogika".

6..Tarbiyaviy ishlar metodikasi - Qarshi: 2007.

7..A.Avloniy. "Turkiy Guliston yohud ahloq" - Toshkent: O'qituvchi, 1992.3.Norov, I., & Uldawlet, D. (2021). Psychological mechanisms that increase the effectiveness of the educational process.

8.Hayitov, A. I., & Miltikboyeva, Z. (2022, May). METHODS OF ORGANIZATION OF NATIVE LANGUAGE CLASSES IN PRIMARY CLASSES ON THE BASIS OF INTERACTIVE METHODS. In E Conference Zone (pp. 11-13)

9.NOROV, I., & ISMOYIL, A. (2021). the Role of Modernity in the Formation of the Uzbek Language as the State Language. IT is a Mirror of the Existence of a Nation in the World His Life is in His Language and Literature"). Journal NX, 6(06), 773-775.

10.Temirbekova, A. (2021). INNOVATSIYALI QPROTSESSLERDIN' TEORIY ALIQ ASPEKTLERI. Интернаука, (5-2), 94-95.

11.Раджапов, У.Р., & Мирахмедов, Ф.Т. (2018). Строго регламентированные методы при обучении движениям и воспитании физических качеств. Молодой ученый, (5), 185-187.

12.Ibragimova, L. A. (2022). Formation of children's logical thinking concepts in people's pedagogy through puzzles